

## **Dars maqsadi:**

OTM talabalarida “Bilim nima uchun kerak?” mavzusi doirasida bilimning shaxsiy kamolot, oilaviy va ijtimoiy mas’uliyat hamda Vatanga sadoqatni mustahkamlashdagi ahamiyatini, shuningdek, Prezident Sh. Mirziyoyev g‘oyalari va Yangi O‘zbekiston islohotlarining mazmunini bilim, ta’lim va ilmni rivojlantirishdagi inson personajlari va hayotiy misollar orqali anglatish, ularni kundalik hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

---

### **✓ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:**

- Talabalar “bilim”ni “axborot” va “ko‘nikma”dan farqlab, uning shaxs, jamiyat va Vatan taraqqiyotidagi rolini izohlaydilar.
  - Bilim manbalarini sanaydilar (garslik, ustoz, kutubxona, ishonchli internet, tajriba) va Yangi O‘zbekiston islohotlari yaratgan ta’lim imkoniyatlarini bog‘laydilar.
  - Milliy meros va zamonaviy taraqqiyotdan faxrlanish, “men ham hissa qo‘sha olaman” degan ichki ishonch mustahkamlanadi.
  - Samarali o‘qish odatlarini ishga soladi: maqsad qo‘yish, qisqa reja, savol berish, konspekt qilish; shaxsiy portfolio yuritishni boshlaydi.
  - Bilimini boshqalar bilan baham ko‘radi (mini-taqdimot, “bir-biriga o‘rgatish”) va o‘qituvchi bilan muntazam fikr almashadi.
  - Prezidentimizning Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda ta’lim hamda ilmfanga qaratilgan islohotlari haqida ma’lumot va bilimlar oladi.
- 

 **Dars hamkorı:** Chirchiq davlat pedagogika universiteti professor-o‘qituvchilari. <https://yangi.cspu.uz>

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, zamona qahramoni yoki mashhur kishilar intervyulari va qo‘srimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

### **Materiallar to‘plami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

### **Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion**

Darsning birinchi qismi maqsadi – talabalarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Talabalarning kelgusi faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya mashg‘ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko‘rish va muhokama qilishga asoslanadi.

#### **2-qism. Asosiy**

Asosiy qismda talabalar darsning asosiy ma’nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda talabalarga berilgan materialni tahlil qilish, hayotiy qahramonlar aks etgan videolarni ko‘rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

#### **3-qism. Yakuniy**

Dars g‘oyalarini umumlashtirish, mashg‘ulotga yakun yasash.